

## **МА’MURIY JAZO QO‘LLANILISHINING UMUMIY TAHLILI**

*IIV Akademiyasi ma`muriy huquq  
kafedrasi o`qituvchisi, leytenant*

**N. G. Sobirova**

**Anotatsiya:** ushbu maqolada Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchilik bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar hamda ma’muriy jazoni qo‘llashda vakolatli organ (mansabdor shaxs) tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik xususiyati, huquqbuzarning shaxsi, uning aybdorlik darajasi, mulkiy ahvoli, javobgarlikni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlari yoritilgan.

**Kalit so`zi:** ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs , mamuriy jarima, ma’muriy jazo, huquqbuzarlik, istisno etuvchi xolatlar, ma’muriy javobgarlik, tajovuz.

**Аннотация:** в данной статье рассматриваются охраняемые законом об административной ответственности общественные отношения и характер правонарушения, совершенного уполномоченным органом (должностным лицом) при применении административного наказания, личность правонарушителя, уровень его вины, имущественное положение. Выделены смягчающие и отягчающие обстоятельства ответственности.

**Ключевые слова:** лицо, совершившее административное правонарушение, административный штраф, административное наказание, правонарушение, исключительные обстоятельства, административная ответственность, агрессия.

**Abstract:** in this article, social relations protected by the law on administrative responsibility and the nature of the offense committed by the authorized body (official) in the application of administrative punishment, the

*identity of the offender, his level of guilt, property status, mitigating and aggravating circumstances of responsibility are highlighted.*

**Key words:** *the person who committed an administrative offense, administrative fine, administrative punishment, offense, exceptional circumstances, administrative liability, aggression.*

Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchilik bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilinganda, ya’ni ma’muriy huquqbazarlik sodir etilganda ma’muriy jazo choralar qonunchilikda belgilangan doirada va tartibda qo‘llaniladi.

Ma’muriy jazoni qo‘llashda vakolatli organ (mansabdor shaxs) tomonidan sodir etilgan huquqbazarlik xususiyati, huquqbuzarning shaxsi, uning aybdorlik darajasi, mulkiy ahvoli, javobgarlikni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlari hisobga olinadi. Jazo qo‘llashning mazkur umumiyligida qoidalariga barcha vakolatli organlar va mansabdor shaxslar rioya qilishlari shart.

Ma’muriy jazoga tortilgan shaxs shu jazoni o‘tash muddati tugagan kundan boshlab bir yil mobaynida yangi ma’muriy huquqbazarlik sodir etmagan bo‘lsa, mazkur shaxs ma’muriy jazoga tortilmagan deb hisoblanadi. Agar bir yillik muddat o‘tgach, ushbu shaxs tomonidan xuddi shunday ma’muriy huquqbazarlik sodir etilsa, u takroran huquqbazarlik sodir etgan, deb hisoblanmaydi.

Ma’muriy huquqbazarlik sodir etgan shaxs ma’muriy huquqbazarlik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashi shartligi ham qonunchilikda belgilab qo‘yilgan. Basharti ma’muriy huquqbazarlik sodir etish oqibatida jismoniy shaxsga, korxona, muassasa, tashkilotga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi yoki davlatga yetkazilgan mulkiy zarar belgilab qo‘yilgan eng kam ish haqidan ko‘p bo‘lmasa, organ (mansabdor shaxs) jazo qo‘llanishi paytida aybdor bu zararni qoplashi to‘g‘risidagi masalani ham sud yetkazilgan zarar miqdoridan qat’i nazar hal qilaveradi. Boshqa hollarda ma’muriy huquqbazarlik natijasida yetkazilgan mulkiy zararni qoplash fuqarolik-huquqiy tartibda hal qilinadi.

Ma'muriy jazo – ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan kundan boshlab, davom etayotgan huquqbuzarliklar uchun esa huquqbuzarlik aniqlangan kundan boshlab bir yildan kechiktirmay qo'llanilishi mumkin.

Jinoyat ishini qo'zg'atish rad etilgan yoki jinoyat ishi tugatilgan bo'lsa-yu, lekin huquqbuzarning harakatlarida ma'muriy huquqbuzarlik alomatlari bo'lsa, ma'muriy jazo chorasi jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish yoki jinoyat ishini tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab bir oydan kechiktirmay qo'llanilishi mumkin.

### ***Ma'muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar!***

Ma'muriy jazo qo'llashda jazoni individuallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi, ya'ni ma'muriy huquqda sodir etilgan qilmishning xususiyati, huquqbuzarning aybdorlik darajasi, shaxsi hamda qonunda nazarda tutilgan javobgarlikni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni hisobga olgan holda, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari bilan belgilangan sanksiyalar doirasida shaxsga jazo tayinlanadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiquvchi organ (mansabdor shaxs) boshqa holatlarni ham javobgarlikni yengillashtiruvchi holat deb topishi mumkin.

Sud ma'muriy jazo chorasin qo'llayotganda javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlarni va huquqbuzarning moddiy ahvolini inobatga olgan holda sabablar va asoslarni, albatta, ko'rsatib, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning maxsus qismidagi moddalarning sanksiyasida nazarda tutilgan eng kam jazodan ham kamroq jazo chorasin qo'llashi mumkin.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiquvchi boshqa organ (mansabdor shaxs) javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlarni va huquqbuzarning moddiy ahvolini inobatga olgan holda, yengilroq ma'muriy jazo chorasin qo'llash to'g'risidagi masalani hal etish uchun ishni qonunda belgilangan tartibda sudga yuboradi. Sud fuqarolarga solinadigan jarimaning eng kam miqdori bazaviy hisoblash miqdorining ellikdan bir qismidan, mansabdor

shaxslarga esa bazaviy hisoblash miqdorining o‘ndan bir qismidan kam bo‘lmasligi jazo choralarini ko‘rishi mumkin.

Qonunchilikda ma’muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiquvchi organ (mansabdar shaxs) larga yuqorida sanab o‘tilgan holatlardan boshqa holatlarni javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holat deb hisoblash mumkin emasligi belgilangan.

Ishni ko‘rib chiquvchi organ (mansabdar shaxs) huquqbazarlikning mast holda sodir etilish holatini uning xususiyatiga qarab aybni og‘irlashtiruvchi holat deb topmasligi ham mumkin.

Ma’muriy qonunchilik hujjatlarida bir necha ma’muriy huquqbazarlik sodir etilganligi uchun ma’muriy jazo qo‘llash qoidalari ham belgilangan. Masalan, biron-bir shaxs ikki yoki undan ortiq ma’muriy huquqbazarlik sodir etgan bo‘lsa, ma’muriy jazo har bir huquqbazarlik uchun alohida-alohida qo‘llaniladi. Shunda, basharti shaxs bir necha ma’muriy huquqbazarlik sodir etgan bo‘lsa-yu, bu haqdagi ishlar bir vaqtning o‘zida ayni bir organ (mansabdar shaxs) tomonidan ko‘rib chiqilayotgan bo‘lsa, unga nisbatan uzil-kesil jazo og‘irroq ma’muriy jazoni nazarda tutuvchi sanksiya doirasida qo‘llaniladi.

Bu holda asosiy jazoga sodir etilgan huquqbazarliklardan istalgan bittasi uchun ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi moddalarda nazarda tutilgan qo‘sishimcha jazo choralaridan biri qo‘shilishi mumkin.

Agar shaxs Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning Maxsus qismidagi bir necha modda bilan ma’muriy javobgarlik belgilangan va ular to‘g‘risidagi ishlarni har xil organ (mansabdar shaxs) ko‘radigan harakat (harakatsizlik) sodir etgan bo‘lsa, unga nisbatan og‘irroq ma’muriy jazoni nazarda tutuvchi sanksiya doirasida jazo qo‘llaniladi. Bu holda asosiy jazoga sodir etilgan huquqbazarliklardan istalgan bittasi uchun ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi moddalarda nazarda tutilgan qo‘sishimcha jazo choralaridan biri qo‘shilishi mumkin. Yoxud shaxs kodeks Maxsus qismidagi tegishli modda bilan ma’muriy javobgarlik nazarda tutilgan harakat (harakatsizlikni) voyaga yetmagan shaxsni ma’muriy huquqbazarlik sodir etishga jalb qilgan holda sodir etgan bo‘lsa, ish

materiallari ko'rib chiqilishi uchun sudga topshiriladi. Bu holda ham, asosiy jazoga sodir etilgan huquqbarliklardan istalgan bittasi uchun ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi moddalarda nazarda tutilgan qo'shimcha jazo choralaridan biri qo'shilishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sh.M.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // Xalq so'zi 2016-yil 8-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi "Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir" nomli ma'ruzasi.
3. I.A.Karimov "Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak". T.10. –T.: O'zbekiston, 2002. 409 B.
4. I.A.Karimov "Adolat qonun ustuvorligida" T-“O'zbekiston”- 2002-y. B 36.
5. I.A Karimov. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir.19-tom.T., «O'zbekiston», 2011-yil. 220 bet.

### **O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va xalqaro-huquqiy hujjatlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2019. -40 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2020 y., 03/20/603/0071-son.
3. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.07.2018 y., 03/18/487/1569-son.